



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINING O'RNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Abdukarimov Ismoilxon Tohirxon o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik

va dizayn instituti o'qituvchi xodimi

ismoilxonabdukarimov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron hukumat tushunchasining asl mohiyati va qonuniyatlari, uning jamiyatimizda tutgan o'rni va korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o'rni vazifalari haqida bahs yuritiladi. Davlat organi va fuqarolarni boshqarish tamoyillari izchilligi yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Hukumat, elektron hukumat, korrupsiya, ta'rif, tavsif, kummunikatsiya, texnologiya, organ, axborot, internet, fuqaro, biznes, bozor, interaktiv xizmat, yagona darcha.

Jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bugungi globallashuv makoni va zamonida barcha sohalarning elektronlashuvi o'z o'zidan davlat va jamiyat boshqaruvining ham elektronlashuvini taqozo etmoqda. Bu esa hokimiyat organlarining xalq oldida shaffof va adolatli xizmat ko'rsatishi, shuningdek ochiqlik va qonuniylik printsipining bosh mezoni hamdir.

Bugungi kunda elektron hukumat tizimi Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Norvegiya, Kanada, Niderlandiya, Daniya hamda Germaniya singari mamlakatlarda samaradorligini ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda juda ko'plab davlat xizmatlaridan uydan chiqmagan holda, onlayn rejimida foydalanish mumkin.



Davlat organlariga so'rovlarga, javoblar, turli to'lovlar, rasmiy hujjatlarning namunasini olish, ularni to'ldirish, elektron imzo bilan yuborish, oliy o'quv yurtlarida masofadan turib tahsil olish, ichki ishlar idoralariga ariza bilan murojaat etish va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, Janubiy Koreyada elektron hukumat infratuzilmasi 1987-yilda qabul qilingan. Ushbu tizim tufayli mamlakat aholisi deyarli barcha operatsiyalarni o'z uylarini tark yetmasdan amalga oshirishlari mumkin: do'konlarda xarid qilishdan tortib, veksellarni to'lash va hujjatlarni qayta ishlashgacha. Jamoat joylarida siz kerakli ma'lumotni osongina topishingiz yoki har qanday elektron hujjatni chop etishingiz mumkin bo'lgan maxsus terminallarni ko'rishingiz mumkin. Janubiy Koreya har yili o'rtacha internet tezligi bo'yicha ham, aholining keng polosali tarmoq bilan qamrab olish darajasi bo'yicha ham dunyoda birinchi yoki ikkinchi o'rinda turadi. Bundan bir necha yil muqaddam mamlakat davlat sektorida 100% elektron hujjat aylanishi tizimi joriy qilingan edi.

Elektron hukumatning korrupsiyani kamaytirish uchun ahamiyati ilmiy tadqiqotlarda ham, siyosiy nuqtai nazarlarda ham keng e'tirof etilgan. Shu bilan birga elektron hukumat va korrupsiya o'rtasidagi bog'liqlikni intuitiv ya'ni o'ziga xos darajada anglash mumkin. Zamonaviy jamiyatda korrupsiya deyarli davlat samarasizligining asosiy manbai hisoblanadi. Uning ta'siri o'laroq ham ijtimoiy ham iqtisodiy soha oqsoqlanadi va mo'rtlashadi.

Bugungi kunda rivojlangan institutlar va elektron hukumatning joriy etilishi korrupsiya imkoniyatlarini pasaytiradi degan fikr tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, inson omilining kamayishi va uning vazifalari texnologiyalar asosida amalga oshirilishi uni boshqa bir personal oldida haqdorlikka urinishiga bo'lgan intilishni kamaytiradi.

Davlat boshqaruviga axborot tenologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish, davlat hokimiyatining ishlashi va samaradorligini oshishiga hizmat qiladi va davlat idoralarining jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatayotgan xizmatlarini ham baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, axborot-texnologiyalari va elektron hukumatning asosiy maqsadi hukumatning barcha darajalarida davlat organlari faoliyatida oshkoralik, ochiqlik va



shaffoflik tamoyillarini ta'minlashdan iborat. Albatta, bu texnologiyalarni amalga oshirishda davlat byudjeti xarajatlarini kamaytirish imkoniyati muhim ijobiy jihat hisoblanadi.

Ikkinchidan, insoniyatning mavjud potentsialidan bir necha barobar qudratli bo'lgan axborot tizimlarini joriy etilishi davlat xizmatining ishonchi va tayanchi bo'lib qolgan bir necha yillik "xizmatchilar" xizmatiga ehtiyoj qoldirmaydi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni joriy etish mansabdorlar uchun pora olishda qo'rquv shakllanishiga xizmat qiladi va bu illatning o'z o'zidan barham topishiga zamin yaratadi.

Bugungi kundaki mamlakatimizda mavjud holat va xalqaro reytinglardagi Respublikamizning o'rnini va bu boradagi amalga oshirilayotgan ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastavval O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi farmonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Xalqaro reytinglar bilan ishlash va "Elektron hukumat" tizimini joriy etish ishlarini muvofiqlashtirish sho'basi bilan ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash uchun kompleks chora-tadbirlarni belgilash yuzasidan yaqindan hamkorlik qiladi deb belgilab o'tilgan.

2020 yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-government Development Index)da 193 davlat orasidan 1 baldan 0,62 ball to'plagan holda 81 o'rindan joy olgan (2019 yilda 87 o'rinni egallangan). Ushbu ro'yxatni esa 1 baldan 0.9758 ball jamg'arib Daniya Respublikasi boshqarib kelmoqda. E'tiborli tarafi shundaki, Daniya Respublikasi Transparency International tomonidan shakllantirilgan Korruptsiyani qabul qilish (Corruption Perceptions Index) indeksida 100 baldan 88 jamg'argan holda peshqadam, ya'ni eng korruptsiyalashmagan davlat sanaladi. Bu esa o'z-o'zidan elektron hukumatning mavjudlik sharti va uning yuqori ta'minlanganlik va ishonchli darajasi korruptsiyani yo'qotish omili sifatida ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizga korruptsiyaga qarshi murosasiz kurashilmoqda va buning samarasi o'laroq xalqaro reytinglardagi mamlakatimizning o'rnini bir muncha



ko‘tarilmoqda. Shunga qaramasdan bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalar belgilab olingan. Shulardan biri bu barcha davlat xizmatlari elektron tizimini yaratish va elektronlashuv natijasida inson omilining kamayishiga erishish demakdir.

Elektron hukumatning mohiyati shundan iboratki, davlat xizmatchisi va fuqaro o‘rtasida bevosita aloqaga kirishish va bir biridan manfaatdorlikni kamaytirishdan iborat. Bu borada amalga oshirilayotgan diqqatga sazovor ish “Yagona oyna” tizimining yoxud “Davlat xizmatlari agentligi”ning ishga tushirilishi bo‘ldi deb aytishimiz mumkin. Buning natijasida esa mansabdor shaxs va fuqaroning uchrashuv joyi davlat idorasi yoxud mansabdor shaxs ofisi emas balki barcha uchun ochiq va shaffof bo‘lgan Yagona internet makoni yoxud yagona portal yoki elektron tizimlar bo‘lmoqda deyishimiz mumkin.

Ma’lumki, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag‘batlantirish, tadbirkorlik faoliyatiga oid bir qator tartibotlar, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to‘siq va g‘ovlarni olib tashlash, respublikada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik sub’ektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratish, eksport salohiyatini kuchaytirish va bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi (BAT) misolida ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tizim BMTning Savdo tartib-taomillarini soddalashtirish va elektron ish amaliyotlari bo‘yicha markazi tomonidan ishlab chiqilgan “yagona darcha” mexanizmini yaratish bo‘yicha tavsiyalar va yo‘l-yo‘riq tamoyillari mezonlariga javob berib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 apreldagi “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma’muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 20-noyabrdagi “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, tadbirkorlik sub’ektlari bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlarni olish



uchun “Yagona darcha” BATda belgilangan shakldagi elektron arizani to‘liq to‘ldiradi va elektron arizalarga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda tegishli vakolatli organlarga yuboradi.

Hozirgi kunda, tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan “Yagona darcha” BATdan foydalangan holda bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlarni olish uchun elektron arizalarni yuborish imkoniyati mavjud. Ma’lumot o‘rnida, 2021 yil boshidan hozirgi kunga qadar “Yagona darcha” BAT orqali tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga quyidagi ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlar elektron tarzda taqdim qilingan:

- Muvofiqlik sertifikati – 45 532 ta;
- Ekologiya sertifikati – 1 154 ta;
- Sanitar-epidemiologik xulosa – 18 472 ta;
- Veterinariya guvohnomasi – 3 100 ta;
- Fitosanitar sertifikati – 33 635 ta;
- Karantin ruxsatnomasi – 10 609 ta.

Shu tariqa “Yagona darcha” BATni joriy etilishi bojxona rasmiylashtiruv jarayoning soddalashuvi va tezlashishi bilan birga, shaffof, ochiq va korrupsiyadan xoli mexanizm yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qog‘ozbozlik va byurokrtiyaga asoslangan ishlash rejimida fuqaroning amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishi bevosita mansabdor shaxsning ushbu vazifaga yondashuvchanlik qobilyati asosida amalga oshiriladi. Mansabdor shaxs esa bu vazifani bajarishi uchun fuqarodan qandaydir moddiy manfaat istab qoladi va bu korrupsiyaga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan elektronlashuv moddiy manfaatdorlikni kamaytirish bilan birgalikda shaffof va barcha uchun ochiq tizim yaratilishiga sabab bo‘ladi. Ochiqlik va shaffoflik esa korrupsiyaning yuzaga chiqishiga qarshilik qiladi. Chunki korrupsiya yopiq va sirli makonda ildiz otadi, ochiqlik va shaffoflikdan esa qo‘rqadi.

O‘z navbatida elektron hukumatning shakllanuvi davlat xizmatchilari yoxud mansabdor shaxslarning vaqtlari va jismoniy kuchlari tejalishini shuningdek ortiqcha



ovoragarchilik va sansalorlikning oldi olinishiga ham xizmat qiladi. Jumladan ma'lum maqsadga erishish uchun yoxud biror faoliyatni amalga oshirish uchun manfaatdor shaxs emas balki, hujjatlar harakati amalga oshadi. Bu esa fuqarolarning vaqti va mablag'i tejalishiga sabab bo'ladi. Har qanday masala shaxsning individning aralashuvisiz adolatli tarzda hal etiladi. Bu esa korruptsiyaga barham berishning bosh omili sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2022.
2. O'zbekistan Respublikasining «Axborotlashtirish To'g'risida»gi Qonuni. 11.12.2003 yil.
3. O'zbekistan Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonuni. 12.10.2022 yildagi O'RQ-793-son.
4. O'zbekistan Respublikasining «Elektron xujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonuni. 29.04.2004 yil.
5. O'zbekistan Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni. 29.09.2022 yil. O'RQ-792-son
6. O'zbekistan Respublikasining «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonuni. 01.11.2019 yil O'RQ-578-son
7. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 18-noyabrda qabul qilingan «Elektron hukumat» to'g'risidagi Qonuni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2018-yil 19-fevraldagi PQ-3549-son